MODARIXON VA ABDULLAXON MADRASALARI

SH.SH.Babayarova

Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Modarixon va Abdullaxon madrasalari Buxoro me'morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarni namoyish etadi. Bu ikki me'moriy obida Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, bezaklar qo'llanilgan holda qurilgan. Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan barpo etilgan mazkur inshootlar ko'rkamligi, salobati va ulug'vor arxitekturasi bilan asrlar osha o'z mavqeini saqlab kelmoqda.

Kalit so'zlar: Modarixon, Abdullaxon, qo'shmadrasa, hujra, miyonsaroy, darsxona

Аннотация. Медресе Модарихан и Абдуллахана демонстрируют все творческие достижения бухарской архитектуры XVI века. Эти два архитектурных памятника были построены с использованием орнаментов, олицетворяющих восточные традиции. Построенные бухарским ханом Абдуллаханом II, эти сооружения на протяжении веков сохраняли свой статус благодаря своей красоте, величию и величественной архитектуре.

Ключевые слова: Модарихан, Абдуллахан, Объединенное Медресе, комната, дворец мьянмы, класс

Abstract. The Modarikhan and Abdullakhan madrasas demonstrate all the creative achievements of Bukhara architecture in the 16th century. These two architectural monuments were built with the use of ornaments, embodying Eastern traditions. Built by the Bukhara khan Abdullakhan II, these structures

have maintained their position for centuries with their beauty, solidity and magnificent architecture.

Keywords: Modarikhan, Abdullakhan, added madrasa, room, myanmar palace, class

XVI asr Buxoro me’morchiligiga xos bo‘lgan, bir o‘q bo‘yicha ro‘para turuvchi qo‘sh madrasa ansambli Modarixon madrasasi (Sharqiy madrasa) 1566, 1581 – 1582 yillarda Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan.[1].Ushbu madrasa Buxorodagi Abdullaxon madrasasi qarshisida joylashgan,ikkalasi qo’sh madrasa majmuasini tashkil etadi [2]. Abdullaxon madrasasi Sharq an’analarini o’zida mujassamlashtirgan,gumbazli uslubda bezaklar qo’llanilgan holda qurilgan.Obidaning o’ziga xos tomonlaridan biri shundaki, tuzilishi odatdagi madrasalardan ancha farq qiladi.Madrasa o’z ro’parasidagi Modarixon madrasasiga qarab biroz egilgan holatda qurilgan.Bunda ham ramziy ma’no bor.Garchand, Abdullaxon buyuk podshoh, uning madrasasi qanchalik sarbaland bo’lmasin baribir volidai muhtaramasi oldida mudom ta’zimda bo’ladi degan hikmat yashiringan.Mazkur davrda yashagan saroy tarixchilaridan Hofiz tanish Buxoriy o’zining “Abdullanoma” asarida Buxoro aholisi madrasa qurilishida faol qatnashganligini yozib oldirgan [4]

Modarixon madrasasi bosh fasadi katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va burj – guldastalar bilan bezalgan, 62 ta hujradan iborat bo‘lgan. Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g‘ishtlar bilan pardozlangan. Toqilar orasidagi bag‘allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan. Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan. Modarixon madrasasi devorlarining ikki chekkasi pishiq g‘ishtdan terilgan bo‘lib, o‘rtasi singan g‘isht bo‘laklari bilan to‘ldirilgan. Madrasa 2 qavatli chorsu tarhli 67x45 metr hisoblanadi. Bosh tarzda ulkan peshdoq va uning 2 yoni 2 qavatli bo‘lib, oldi ravoqli 3 qismga ajratilgan va xonalari oldi handasiy uslubda koshinkori naqshlar bilan bezatilgan. Madrasaning qurilishida yog‘och xom va pishgan g‘ishtlar va maxsus ishlangan “qir” qotishmasidan keng foydalanilgan. Madrasaning 2 burchagida charxi gumbaz bilan qoplangan xonalar va miyonsaroy, darsxona, masjid ham mavjud

bo‘lgan. Abdullaxon davri me’morchiligining yetuk namunasi bo‘lgan bu madrasa Buxoro me’morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarni namoyish etadi[5]

Qadimdan Buxoro o’zining ko’plab madrasalari bilan nom taratgan.Buxoroning qadimgi Xiyobon mavzeida qurilgan Modarixon madrasasi Buxoro me’morchiligining takrorlanmas obidalaridandir.O’sha davrda “Qo’sh” usulida qurilgan binolar eng kuchli taassurot qoldiruvchi an’anaviy arxitektura binolari deb hisoblangan.[6] Abdullaxon o’z onasi sharafiga 1566-1567 yillarda qurdirgan Modarixon madrasasi mana besh asrki mehr va muhabbat ramzi, buyuk zotga ehtirom obidasi bo’lib kelmoqda.Noyob arxitektura ko’rinishiga ega Modarixon madrasasi sirli sinoati, hayotiy hikmati bilan umrboqiy yashab, ziyoratchilarning obod qadamjosiga aylanishi muqarrar.[7]

Modarixon madrasasi devor qurilmasi XVI asr Buxoro me’morchiligiga xos bo’lib, ikki chekkasi pishiq g’ishtdan terilgan, o’rtasi esa siniq g’isht bo’laklari bilan to’ldirilgan. Madrasa tarhi trapetsiya shaklida. Bosh fasad katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va burj-guldastalar bilan bezalgan.Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g’ishtlar bilan pardozlangan.Toqilar orasidagi ba’g’allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan.Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan.Modarixon madrasasi yuqori peshtoqida “Alloh” degan so’z handasaviy kufiy shaklda yozilgan.Madrasa darvozasi yuqorisida oq rangdagi harflar bilan koshinkor baxshida bitik bo’lgan.Ushbu bitikda madrasa qurilishi buyurtmachisi Abdullaxon II, kitoba matnini tuzuvchi shaxs Buxoro bosh qozisi Nuriddin qozi Muhammad ismlari va qurib bitkazilgan sana yozuvlari bo’lgan. XVI asrda Buxoroning qadimiy Xiyobon ko’chasida joylashgan bu joy bundan oldin Sari puli oshuqon nomi bilan ataluvchi mavzega qarar edi.Urush yillarida ko’chirib keltirilganlar Modarixon madrasasi hujralariga joylashtirilgan. Har bir hujrada bir oila yashar edi.Ayrim sabablarga ko’ra, ushbu madrasa qarovsiz qolib, xarobaa aylangan.[8]

Abdullaxon madrasasi xonlikdagi eng yirik ma'rifat maskani sifatida bunyod etilgan.Uning qurilishi 1588-1590-yillarga to'g'ri keladi.Me'moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g'isht, taxta, maxsus qir qotishmasidan foydalanishgan. Me'moriy obidaning hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o'rab turadi.Har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan.Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o'tiladi.Madrasaning katta peshtoqi janubga qaragan.Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor bezaklar bilan pardozlangan.Darvozadan o'tib, ikki yonidagi xonalar- darsxona va masjidga kiriladi.[9]1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me'moriy inshootlar qatorida Abdullaxon hamda Modarixon madrasalari qayta ta'mirlandi. Keyinchalik 1970-yillarda shaharda yangi ko'p qavatli uylar qurilishi natijasida odamlar madrasadan ko'chirila boshlandi.Madrasa binosi 1997-1998 yillarda ta'mirlangan. Koshinlari va parchin bezaklari o'z holicha ma'lum darajada tiklandi.Obidani bundan keyin ham muhofaza etish maqsadida restavratsiya ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.Ayrim sabablarga ko'ra ushbu madrasa qarovsiz qolib, xarobaga aylangan..Hozirda O'zbekistonning turli joylaridan tashrif buyurgan sayyohlar va chet ellik turistlar diqqat e'tiboridagi sayrgohlariga aylangan.Me'moriy obidalar UNESCO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.[10]

O'zbekistonda 2022 yil 22-24 iyul kunlari bo'lib o'tgan 'O'zbekiston madaniy merosi-yangi Renessans poydevori VI Xalqaro Kongressi fondida Modarixon madrasasi sayyohlar uchun tashrif manziliga aylantirildi.Shuningdek, Madarixon madrasasida Hunarmandchilik markazi tashkil etildi.

Adabiyotlar:

1.Muhammad Ali Baljuvoniy Tarixi Nofeiy T.2001.

2.Bobojonova F. Buxoro me'moriy obidalari tarixi Buxoro: Fan va ta'lim 2022

3.Abu Bakr Narshaxiy Buxoro tarixi Meros turkumidan T: Kamalak 1991

4.Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi T.1999

5 Radjabov Q, Inoyatov S, Buxoro tarixi T:Tafakkur 2016

6 Muhammadjanov A, Hakimov A Buxoro-sharq durdonasi. T Sharq 1997

7.Бабаджанова Г Н Колбинцев А П Маньковская Л Ю Ансамбль Кош-медресе 1988 Москва Профиздат

8.Abduxoliqov F, Razzoqov A, Rahimov K, Nekrasova Y.O'zbekiston obidalaridagi bitiklar:Buxoro.T:O'zbekiston today 2016

9.L.Q.Asrorova Buxoro madrasalari tarixidan 2017.

10.I.Muhsinov, M.Muhsinova Go'zallikning boqiy umri Buxoro 2011